



## YUQORI SINIF O’QUVCHILARI O’RTASIDAGI O’ZARO MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK MAZMUN-MOXIYATI

**Saparova Kuralay Saburovna**

Qoraqalpog’iston Respublikasi To’rtko’l tumani

45-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro’-e’tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o’sib, ulg’ayib, qanday insonbo’lib hayotga kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o’tkirhaqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

**Kalit so’zlar.** Muloqot, jamoa, yuqori sinf, shahslararo munosabat, omillar, yosh xususiyati, fikr, shakllantirish, qo’llab quvvatlash, hamkorlik, o’smir, hamkorlik, mustaqilik.

Davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub’ekti sifatidagi o’rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O’zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo’shnicilik muhitini shakllantirish naslimiz davomchilarini nafaqat jismonan baquvvat, balki ma’naviy boy, yangi davr talabiga javob beradigan, munosabatlar jarayonida erkin fikr yuritadigan qilib tarbiyalashga bevosita bog’liqdir. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin qabul qilingan ilk Qonun “O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish choratadbirlari to’g’risida”gi Qonun bo’lib, o’tgan davr mobaynida yoshlarni har tomonlama qo’llab- quvvatlashning huquqiy asoslarini kafolatladi. Mamlakatimiz rahbari tomonidan 2008 yilning “Yoshlar yili”, 2010 yilni “Barkamol avlod yili”, 2012 yilni “Mustahkam oila yili”, 2014 yilni “Sog’lom bola



yili” deb e’lon qilinishi va qabul qilinayotgan davlat dasturlari mamlakatimizda sog’lom avlodni shakllantirish, yoshlarni har tomonlama qo’llabquvvatlash borasida olib borilayotgan izchil siyosatning in’kosi bo’lib hisoblanadi. Shunday ekan, o’smir yoshlarni muloqot jarayonida mustaqil fikrini erkin ifodalash malakalarini va ularning tanqidiy fikrlashini shakllantirish psixolog-pedagoglar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, XXI asrda yashaydigan har bir insonning tanqidiy fikrlashi uchun avvalo muloqotga o’rgatish zarur. Ijtimoiy munosabatlar ko’lamining kengayishi o’sib kelayotgan avlodni o’ta murakkab xususiyatga ega munosabatlar jarayoniga har tomonlama yetuk etib tayyorlash vazifasini qo’ymoqda. Qolaversa, mustaqil fikr egasi bo’lgan shaxs o’z imkoniyatlari, qobiliyatini erkin namoyon eta oladi. Bu xususida O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni e’tirof etadigan: «Amalga oshirgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o’z qobiliyatini, o’z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilashi, ma’nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir» deb takidlagandilar. Muqaddas kitob va hadislarimida ham shaxslararo munosabatlarni to’g’ri yo’lga quyish borasida ko’pgina kursatmalar mavjud; 183-bob. Munosabatlarni tuzatish haqida 396. Abu Dardo (r.a.) dan rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): "Men sizga namozdan, ro'zadan va sadaqadan ham darajasi ortiqroq narsani aytib beraymi?" - dedilar. Sahobiylar: "Aytib bering, yo Rasulalloh", deyishdi. Rasululloh (s.a.v.): "U esa kishilarning orasi tuzuk bo'lishidir. Uning buzuk bo'lishi hamma yaxshi narsalarni taroshlaguvchidir", dedilar. 397. Ibn Abbos (r.a.) aytdilar: "Qur'ondagi "Allohdan qo'rqingiz va oralaringizni tuzatingiz", (8:1) degan oyatida mo'minlarning Allohdan qo'rqishi zarurligi va munosabatlarini tuzatishlari kerakligi ta'kidlangan". Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va rolga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni takidlaydi.



Bolani yomon ta'sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi. Shuningdek, alloma o'qitish samaradorligini ta'minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson boshqalar bilan munosabatda Bo'lish, ularning yordami va qo'llab- quvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o'zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrixohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o'rnini belgilab beradi. Yosh avlodni psixologik, intellektual va fiziologik jihatdan yetuk inson, hayotiy qarama-qarshilik, xususan, turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolish, nosog'lom turmush kechirish va noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etishdan o'zini saqlab qola oladigan, tanqidiy fikrlaydigan o'z mustaqil fikrga ega, shahslararo munosabatlarni to'g'ri tashkil eta oladigan etib tarbiyalash pedagog va psixologlar oldida turgan asosiy vazifadir. Bu jaryonda to'g'ri tashkil etilgan ta'lim tarbiya muhim ahamiyatga ega. Demak, shaxsni shakillantirish va rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur. Bu jarayonda bolaga ta'lim tarbiya samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Insoning shaxs sifatidan rivojlanshiga ta'sir etuvchi omillarni 3 guruhga ajratiladi; quydagilar

Ana shu yosh xususiyatlari hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bolishi mumkin. Shuningdek, turli yosh davrlarning o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. O'smirlarning murakkabligi anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davr o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy yetilish davri boshlanadi. Bu bolaning feil-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarinmg o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi. Ilk



o'spirinlik balog'atga yetgan davridir. Ularda mustaqilik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi, his- tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'smirlik va o'spirinlik davrlari maktab va boshqa ta'lim maskanlarida o'qish davrlariga to'g'ri keladi. Bu davrdagi yetakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, unda bola bilim olish bilan bog'liq, malaka va ko'nikmalarni orttirishdan tashqari, shaxs sifatida ham muhim o'zgarishlarga yuz tutadi. Bu davrda ular o'rtasida bahs munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning uchun ham o'spirinning barcha intilishlari ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Ularda o'quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi. O'spirinlik - bu aqliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o'z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish etish boshlaydilar. Shunda o'qituvchilar va katta yoshlilar ulaming hali g'o'r fikrlari va dunyoqarashlarini to'g'ri yo'naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o'z-o'zini anglash, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi. Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o'zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo'ladi. O'zini kattalardek his etish, o'ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o'ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o'z qarashlari nuqtai nazaridan hal etish boshlaydi. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg'araz to'g'ri yo'nalish berishlari o'ta muhim. Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoadagi shaxslar bilan muomala- muloqoti muhimdir. Albatta, bu borada ta'lim muassasasida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta'siri katta ahamiyatga ega. Maktabda berilgan mustaqillik va to'g'ri tashkil etilgan o'qish sharoitlari, samimiylilik muhiti unda mustaqil fikrlashga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi yaqinlari o'qituvchilari, sinfdosh o'rtoqlari bilan shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga quyishga imkon beradi. O'smir va o'spirin atrofida u yoqtirgan va uni yoqtiradigan odamlarning bo'lishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, uning aksi bola ruhiy azoblanishining sabablaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki yosh avlodni o'yin, o'qish, mehnat faoliyati davomida shaxslararo munosabatlarga kirisha olishi, mustahil hayotga to'g'ri qadam



qo'yishi jamiyatning faol fuqarosi bolishi oila va uni o'rab turgan sog'lom muhitga, psixologik va yosh xususiyatlarini hisobga olib to'g'ri tashkil etilgan ta'lim tarbiya bog'liq.bolaga talim tarbiya berish jaryonida. Chunki o'spirin-yoshlar mustahil hayot ostonasida bo'lib, ulaning bu hayotga to'g'ri qadam qo'yishi jamiyatning faol fuqarosi bolishining muhim shartidir. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim – tarbiya insonni ham aqliy, ham ahloqiy jihatdan kamolga yetkazadi, xususan, inson tabiat va jamiyat qonun – qoidalarini tug'ri bilib oladi va hayotga to'g'ri yo'l tutadi, boshqalar bilan tug'ri munosabatda bo'ladi, jamiyat tartib qoidalariga rioya etadi.O'smirlar bilan turli mavzularda fikr almashish bu davrda ular o'rtasida bahs munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. I.Karimov “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” Toshkent «Ma'naviyat» 2008 73-bet.
2. Umumiy pedagogika nazaryasi va amaliyoti “Sano-standart” nashriyoti Toshkent-2017
3. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
4. М.Айерс Социальная психология.- Спб, 1997